

**XALQARO AUDIT STANDARTLARI ASOSIDA  
BANK AUDITINI TASHKIL QILISH**

**Mirzayev O.**

*Bank-Moliya akademiyasi "Buxgalteriya hisobi va audit"  
kafedrası dotsenti*

**Kamoliddinova Mohiniso**

*Bank-Moliya akademiyasi magistranti*

**Annotatsiya:** O‘zbekiston Respublikasida audit xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish sharoitlarini yaxshilash uchun auditorlik faoliyati sohasida xalqaro standartlarga mos zamonaviy yondashuvlarni amalda qo‘llash samarali hisoblanadi. Hozirda xalkaro audit standartlarini O‘zbekiston xududidagi tijorat banklarida ko‘llash yuzasidan taklif etilayotgan loyiha normalari xalqaro prinsiplarga mos ravishda tuzilishi, shuningdek, ushbu loyiha doirasida respublikadagi ishbilarmonlik sharoitlari yanada rivojlanishi oqibatida audit kasbini nufuzi, xamda audit xizmatlar bozori sifati oshishiga yordam beradi. Auditorlik faoliyatida audit riskini baholash auditor tekshiruvida alohida inobatga olinishi kerak. AXS (330) "Baholangan risklarga javoban auditorning harakatlari" nomli standart bo‘yicha tavsiyalar shakllantirilgan.

**Kalit so‘zlar:** audit, xalqaro moliyaviy hisob standartlari, xalqaro audit standartlari, ichki audit, auditorlik dalillari, audit risklari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"<sup>1</sup>gi qaroriga asosan o‘tgan yillarda mamlakatimizda auditning normativ- huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shuningdek, auditorlik faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta‘minlashga imkon yaratdi. Shu bilan birga, qator muammolar va kamchiliklar auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va korporativ boshqaruv sifatini oshirish uchun auditorlik xizmatlari uning ahamiyatini oshirishga to‘sqinlik qiladi, ayniqsa:

- birinchidan, auditorlik tashkilotlariga ishonchning past darajasi, shuningdek, auditorlik tekshiruviga moliyaviy hisobotning haqqoniyligini tasdiqlashning kafolati emas, balki ortiqcha va malol keladigan ma‘muriy tartibetarmil sifatida qaralmoqda;

-ikkinchidan, auditorlik tashkilotlarini tanlab olish bo‘yicha mavjuda shu jumladan tanlovlar o‘tkazish amaliyotib kulina insofsiz, shu jumladan, narx borasida insofsiz raqobatni keltirib chiqaradi. Xulosa qilib aytganda, auditorlik xizmatlari sifati,

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi qarori

auditorlik xulosalarining haqqoniyligi pasaymoqda.

-uchinchidan, auditorlarni maxsus tayyorlash va ularning malakasini oshirishning amaldagi tizimi yuzaki tusga ega bo'lib, professional tayyorgarlikning va auditorlik xizmatlari sifatining zaruriy darajasini, shu jumladan auditorlik faoliyatining xalqaro standartlariga mosligini ta'minlamayapti, bu esa auditor kasbi nufuzining pasayishiga olib kelmoqda;

-to'rtinchidan, auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashki nazorat qilishning samarali tizimi mavjud emas, bu litsenziyalovchi organning huquqiy ta'sir choralari cheklangani sharoitida sifatsiz auditorlik xizmatlarini ko'rsatish hollariga va auditorlarning insofsiz xatti-harakatlariga nisbatan tezkor chora ko'rish imkonini bermayapti;

-beshinchidan, auditorlik faoliyatining milliy standartlari umume'tirof etilgan xalqaro audit standartlariga to'liq mos emas, bu xorijiy investorlarning mahalliy korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqiqiyligini tushunish qobiliyati esa shakllanishini ta'minlamaydi.

Bugungi kunda respublikamizda milliy auditorlik faoliyatini zamonaviy moliya bozori talablariga mos ravishda rivojlantirishga berilayotgan katta e'tiborga qaramasdan, milliy audit tizimining amaliy va metodologik asoslari borasida o'z echimini kutayotgan bir qator masalalar ham mavjud. Bu esa moliya tizimining boshqa tarmoqlari kabi audit tizimida ham auditorlik faoliyatining kelgusi rivojiga qaratilgan va xalqaro talablardan kelib chiqqan holda keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qilib kelmoqda. Ma'lumki O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni asosiy maqsadi xalqaro bozor munosabatlarida fa'ol qatnashish. Auditorlik tashkilotlari faoliyatining qonuniy me'yoriy asoslari tarkibida auditorlik standartlari muhim o'rin tutib, u ushbu kasb bilan shug'ullanishning muayyan me'yorlarini belgilab beradi. Shu boisdan ham respublikamizda auditning milliy standartlarini ishlab chikishga aloxida e'tibor qaratilmoqda. Auditning milliy standartlarini ishlab chiqishda xalqaro standartlarga tayanilmoqda.

### **Adabiyotlar sharhi**

Xalqaro audit standartlari tushunchasi va ularni audit standartlarini tashkil etish va uni amaliyotga qo'llash yuzaidan bir qator mamlakatimiz iqtisodchi professor olimlar va xorijiy mutaxassislar tomonidan keltirilgan ayrim fikr-mulohazalarga to'xtalib o'tsak.

**A.K.Ibragimov:** Jahon fond bozorlarida listingdan o'tish uchun taqdim qilinadigan moliyaviy hisobot aynan shu ikki standart talablari asosida tayyorlanadi va taqdim etiladi. Bunda shuni e'tiborga olish lozimki, AQSH fond bozori listingiga kirish uchun GAAP (BXUK) talablari, qolgan fond birjalari uchun esa MXXS talablari asosida moliyaviy hisobot taqdim etiladi. Hozirgi kunda buxgalteriya hisobining

xalqaro standarti sifatida ikkita etalon: Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari MXXS (International Financial Reporting Standards IFRS) hamda AQSHning Buxgalteriya hisobining qabul qilingan qoidalari BHUQ (Generallā Assepted Assounting Prinsiples - GAAP) tan olingan.2019 [6](7 bet)

**A.A.Karimov:** Auditor professional faoliyatining mazmuni iqtisodiy sohada auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirish kafolat berish, soliq masalalari bo'yicha konsalting xizmati ko'rsatish, ishlab chiqarishni boshqarish sohasida ekspert sifatida ishlashi va vasiylik faoliyatidan iborat.2019 [3] (22 bet). Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkunki, auditorlik faoliyati iqtisodiyotni barcha javxalarida o'zining taklif va xulosalari orqali ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarga moliyaviy faoliyati barqaror bo'lishligiga yordam beruvchi shaxs.

**Chernix M.N:** Moliyaviy hisobotning ishonchliligi deganda uning ko'rsatkichlarining to'g'rilik darajasi tushuniladi, bu esa ushbu hisobotlardan foydalanuvchilariga xo'jalik yurituvchi subektning moliyaviy, mulkiy holati, faoliyati to'g'risida to'g'ri xulosalar chiqarish va ular asosida asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Auditorning moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi to'g'risidagi fikri manfaatdor foydalanuvchilar tomonidan ushbu hisobotlarga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi. Makroiqtisodiy darajada audit bozor infratuzilmasi elementi xisoblanadi. 2011 [5]

**K.Axmadjonov:** Auditorlik faoliyati standartlari - auditorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va asoslarini tartibga soluvchi, shuningdek, auditorlar uchun tekshiruv o'tkazish borasidagi o'z majburiyatlarini amalga oshirishlariga yordam berish maqsadida qabul qilingan umumiy qonun qoidalar tizimidir. Tekshiruv davomida auditorlik standartlariga amal qilish tekshiruvning yuqori sifatda o'tishi va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi. 2010 [4] (35 bet)

### **Tahlil va natijalar.**

Mazkur ilmiy maqolada xalqaro audit standartlari asosida bank auditini tashkil etish yuzasidan olib borilayotgan keng ko'lamli tadqiqotlar asosida yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, respublikada faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining ichki audit xizmati turli darajada auditi xalqaro standartlariga yondashgan bo'lsada, ushbu standartlarni to'liq muvofiklashtirilgan deya olmaymiz. Shu o'rinda audit xalqaro standartlarini ahamiyati va uning zaruriyati haqida xalqaro me'yoriy hujjatlarga murojaat qilamiz. Xalqaro audit standartlariga muvofiq o'tkazish bo'yicha asosiy bo'lib turgan xujjat bu "Mustaqil auditorning umumiy maqsadlari va auditning xalqaro standartlariga muvofiq o'tkazish" deb nomlangan standart hisoblanadi (AXS 200).

Mazkur AXSning maqsadi sifatida moliyaviy hisobotlar auditini AXSga muvofiq o'tkazishda mustaqil auditorning umumiy majburiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek standart AXS ko'lami, vakolatlari va tarkibiy tuzilishini tushuntiradi hamda mustaqil

auditorning barcha auditlarga tatbiqan umumiy majburiyatlarni, shu jumladan AXSga rioya qilish majburiyatini belgilaydigan talablarni o'z ichiga oladi.

Standartda subyektlar, jumladan banklarning moliyaviy hisobotlar auditini o'tkazish nuqtayi nazaridan yozilgan. Zaruriyatga qarab AXS boshqa oldingi moliyaviy axborot auditiga nisbatan qo'llanganda yuzaga kelgan vaziyatga moslashtirilishi lozim. Ushbu standartni tub mohiyatida moliyaviy xisobot foydalanuvchilariga ishonchli axborotni taqdim etishdan iborat. Bu maqsadga moliyaviy xisobotlar barcha muhim jihatlarda moliyaviy xisobotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosiga muvofiq tayorlangani xususida auditor fikrini bildirish yo'li bilan erishiladi. Umumiy maqsadli asosning aksariyati bilan bog'liq hollarda bunday fikr moliyaviy hisobotlar barcha muhim jixatlarda haqqoniy taqdim etilgani yoki etilmagan yoki ular taqdim etish asosiga muvofiq to'g'ri va haqqoniy tasavvur berishi yoki bermasligi hususida bildiriladi.

Respublikada faoliyat yuritayotgan tijorat banklari audit xizmatlaridan foydalanishi moliyaviy barqarorligini taminlashda katta ahamiyatga ekanligini ko'rishimiz mumkin. Hozirgi zamonaviy bank nazoratlarida audit xizmatlaridan foydalanishda xalqaro audit standartlari qo'llanilishi sifati va mazmuni bo'yicha qo'yilgan talablar yetarli darajada deb ayto'lami. Bu iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida katta o'zgarishlarga olib kelmayotganini ko'rishimiz mumkin.

Tijorat banklarida auditni xalqaro standartlari asosida to'g'ri tashkil etilishi banklarda operatsiya turlari va hajmi kengayishi yanada ortadi, bu esa bankga investitsiyalar oqimini ham o'z navbatida ortishiga sabab bo'ladi. Bunda bank audit masalasi bu balansning haqqoniyligini tasdiqlash, bank rahbariyatiga bankning moliyaviy holati to'grisida xulosa berish, uning daromadliligi, likvidliligi va bank operatsiyalar riskliligi darajasini tasdiqlashdir. Bunda jahonning rivojlangan davlatlari

banklari oldida raqobatbardosh bank shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.


O'z navbatida Markaziy bankning "Ichki auditni" xalqaro audit standartlari asosida tashkil etishda qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Bunda bank boshqaruvi ichki audit xizmati o'z vazifalarini to'liq va so'zsiz bajarishi uchun bank faoliyatiga daxldor istalgan hujjatlar, yana hisobot, bayonnoma, yozuvlar, elektron fayllar, bank axborot tizimlaridan foydalanishida erkinli vratilishi kerak bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy amaliyotida ham audit xalqaro standartlari bitta muqum yo'nalishda olib borilishi to'grisida ko'rsatilmagan, bu esa kelgusida sohalarini tarkibi va tarmoqlarini xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllantirilishini bildiradi. Xalqaro audit standartlari to'rt xil bo'ladi ular:

- Auditning umumiy standartlari;
- Auditning ishchi standartlari;
- Xisobot standartlari;

•Maxsus standartlari:

Quyidagi sxemada audit standartlari mohiyati qanday sifatda shakllanishini ko‘rishimiz mumkin.



Xalqaro audit standartlarining ushbu to‘rtta bo‘limidan auditning ishchi standart tarkibiga kirivchi Rejalashtirish (300 AXC) standartini tijorat banklarini ichki audit xizmatini tarkibiy qismiga joriy etish bo‘yicha taklif shakllantirildi.

**1-jadval**

**Audit jarayonini rejalashtirish uchun bosqichli chizmazi (taklif)**

Kirish qismi	Tayorgarlik qismi	Yakuniy qism
Ishlarning yillik rejasi.	Dastlabki rej alashtirish	Bank xodimlarini auditorlik teks hirish va audit vazifalari bilan ta nishtirish.
Yillik smeta	Umumiy rejani tuzish	Tekshirish va xujjatlashtirish
Bankning oldingi tekshirish natijalari bo‘yicha ma’lumot va auditor tavsiyalarining bajarilishi.	Audit dasturini tuzi sh	Reja bajarilishining nazorati va u ning korrektiligi.

Markaziy tekshirish natijalari ma'lumot		Xisobot tuzish va auditorlik xulosasi hamda tavsiyalar.
Tashki bank buyicha nazorat organlar tekshirish natijalari bo'yicha ma'lumot.		Aniqlangan kamchiliklari tuzatish bo'yicha tadbirlar rejasini tayyorlash.
Bank ishchi ko'mitasi va tartibga soluvchi organlar qarorlari bo'yicha bayonnomalar		Auditorlik tekshiruvi bo'yicha tavsiyalarni bajarilishini tekshirish va tadbirlar rejasini.
Bankning yillik hisobotlari va joriy yil bo'yicha tasdiqlangan byudjeti.		
Boshqaruvning analitik hisobotlari		

Transmilliy korxonalar koorparatsiyalarni ko'payishi iqtisodiyotda globallashtirish hisob tizimidan tashqari ko'plab davlatlarda hisob qonunchiligiga mos keladigan standartlarni yaratish zaruriyati vujudga kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-fevraldagi "Moliyaviy xisobotlarni xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>2</sup> gi PQ 4611 qarori doirasida aktsiyadorlik jamiyatlari o'zining moliyaviy xisobotlarini xalqaro standartlar asosida tuzishi belgilab qo'yildi. Xalqaro standartlarni amaliyotga joriy etilishi mamlakatimizdagi aktsiyadorlik jamiyati tashkilotlarini strategik vazifalari belgilashda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek korxonalar boshqaruvidagi aktsiyadorlarni ro'lini kuchaytirishda MXXS larni tan olish va uni keng joriy etishni ham taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"<sup>3</sup> gi farmonida ham belgilab qo'yilgan.

"Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun yangi tahrirning 22-moddasida xalqaro standartlar bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobotga doir talablar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilanadi deb qayd etilishi moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini mamlakatimizda joriy etilishi yuzasidan qo'yilgan qonuniy asosning birlamchi bosqichi deb hisoblash mumkin.

O'tgan yillar davomida mamlakatimizda auditning normativ-huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shu qatori, auditorlik faoliyatida litsenziyalashni

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-fevraldagi "Moliyaviy xisobotlarni xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4611 qarori

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni



soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishi va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini taminlashga imkon yaratdi.

2018 yil 19-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"<sup>4</sup> PQ-3946 son qarorida auditorlik faoliyatini rivojlanishiga, boshqarishga oid qarorlarni qabul qilishda va yana korporativ boshqaruv sifatini oshirishda auditorlik faoliyati xizmatlarining ahamiyatini oshirishdagi birqancha muammo va kamchiliklar qayd etilgan, xususan: auditorlik tashkilotlariga bo'lgan ishonch darajasi pastligi, auditorlik tashkilotlarini tanlab olishda mavjud cheklovlar yana tanlovlar o'tkazish amaliyoti ko'p hollarda insofsiz, shuningdek narx borasida adolatsiz raqobatni keltirib chiqaradi, auditorlarni malakasi va ularni tayyorlashdagi tizim yuzaki tusga ega ekanligi, shu kabi bir qator muammo va kamchiliklarga aytib o'tilgan. Mamlakatimizda audit xizmatlari bozori rivojlantirish sharoitlarini yaxshilash maqsadida auditorlik faoliyati sohasida xalqaro standartlarga mos za'monaviy yondashuvlarni amalda qo'llash uchun bir qancha chora-tadbirlar rejalashtirilgan bo'lib unda 2020 yil 1-yanvardan respublikada har bir auditorlik tashkilotlari o'z faoliyatlarini faqat xalqaro buxgalteriya federatsiyasi tomonidan chop etilgan auditni xalqaro standartlariga mos ravishda amalga oshirishlari belgilandi. Bu qarorlardan ko'zlangan asosiy maqsad xalqaro darajadagi turli miqyosdagi investitsiyalarni iqtisodiyotimizga kirishiga asosiy sabablardan biri sifatida ko'rishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. L.K.Ibragimov (2013). Auditning xalkaro standartlari asosida tijorat banklarida ichki auditning tashkiliy asoslari. Uquv ko'lanka.T. 2013.
- 2 Xamdamov B.K(2021). Auditning xalkaro standartlari. T: "Iktisod moliya". 2021.
3. Ibragimov A.K (2010). Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. Toshkent, Moliya-2010.
4. Arens A. Lobbej Dj. Audit: Per s ang.Sokolova.-M.:2003
5. Ibragimov A.K (2016). Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. BMA «Moliya», 2016 y.
6. Do'smurotov R.D. (2003). Audit asoslari. Darslik. - T
7. Ibragimov A.K (2019). Banklarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik. (guvxoasi asosida). TMI «Iqtisod-Moliya», 2019 y.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3946-son qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 4 avgustdagi "Auditorlarni sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5210-son karori.
10. Internet saytlari:<https://lex.uz/>

<sup>4</sup> "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"<sup>4</sup> 2018 yil 19-sentyabrdagi PQ-3946 son qarori